

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

*Navoiy viloyati Navoiy shahar 16-AFCHO'IM boshlang'ch sinf o'qituvchisi*

*Boymurodova Gulshod Odilovna*

**Annotatsiya:** O'yinqaroq va sho'x bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsga qiziqtirish va ularning qiziqishlarini o'rganish pedagoglarning eng oliy vazifalaridan biri. Dars davomida, „Charxpalak“ metodi, „Videotopishmoq“ metodlarini qo'llash orqali dars samaradorligini yanada oshirish mumkin. Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda bolalar psixologiyasi, kreativligi va pedagoglarning pedagogik mahoratlari muhim rol o'ynaydi.

**Аннотация:** Заинтересовать на уроке учащихся младших классов, более игривых и веселых, и изучить их интересы — одна из важнейших задач педагога. В ходе урока эффективность урока можно повысить, используя метод «Чархпалак», методы «Видеопоиск». Важную роль в повышении качества начального образования играют детская психология, творчество и педагогическое мастерство педагогов.

**Abstract:** It is one of the highest tasks of pedagogues to interest elementary school students, who are more playful and cheerful, in the lesson and to study their interests. During the lesson, the effectiveness of the lesson can be increased by using the "Charkhpalak" method, "Videofinding" methods. Children's psychology, creativity and pedagogical skills of pedagogues play an important role in improving the quality of primary education.

**Kalit so'zlar:** Pedagogik mahorat, "Videotopishmoq", "Charxpalak"metodi, kreativlik, axborot vositalari

Ключевые слова: Педагогическое мастерство, «Видеопоиск», метод «Чархпалак», творчество, информационные носители.

**Key words:** Pedagogical skill, "Video find", "Charkhpalak" method, creativity, information media

Hali o'yinqaroqligi, erkalgini tashlay olmagan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ta'lim va tarbiyani birdek olib borishda interfaol metodlar va samarali o'yinlar ko'mak beradi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda "Aqliy hujum", "Fikrlar hujumi", "Tarmoqlar" metodi, "Sinkveyn", "BBB", "Beshinchisi ortiqcha", "6x6x6", "Bahs-munozara", "Rolli o'yin", FSMU, "Kichik guruhlarda ishlash", "Yumaloqlangan qor", "Zigzag", "Oxirgi so'zni men aytay" kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda. Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak.[1]

#### «Videotopishmoq» metodi

Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televideniye, radio, nusxa ko'chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta'lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilar oldida ta'lim jarayonida turli axborot vositalaridan o'rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi.

Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o'quvchilar e'tiboriga o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi

izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;

- o'quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;

- jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etishadi;
- o`qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi.

Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi.

O`quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o`z fikr-mulohazalarini

bildirishadi.

Masalan, «Elektr jihozlari» (1-sinf), «Yil fasllari» (2-sinf) kabilar asosida o`quvchilarga milliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz, iqtisodiy munosabatlar haqida tushunchalar beriladi. Boshlang`ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o`yinlardan, zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o`quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o`rganganlarini hayot bilan bog`lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O`qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg`or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.[2,841] Boshlang`ich 1-4- sinflarda o`quvchilarning zamonaviy yangi metodlar bilan bilim, ko`nikma va malaka hosil qilish orqali kreativ fikrlashga o`rgatishda quyidagi metodlar va didaktik o`yinlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

“Charxpalak: metodi. Mavjud bilimlarni puxta o`zlashtirishda o`quvchlarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklari muhim ahamiyatga ega.“Charxpalar” metodi o`quvchlarda tezkor fikrlash ko`nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o`z xohishlariga ko`ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko`rish istagida bo`lgan o`quvchilar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ular o`qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to`g`ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko`ra har bir savolga qaytarilgan to`g`ri javob uchun ballar belgilanadi. Yakuniy ballarning o`rtacha arifmetik qiymatini topish asosida tezligi aniqlanadi. Barchamizga ma'lumki, kreativ fikrlash bu insonning bizni o'rab turgan hamma narsani mantiqiy yondashgan holda tushunish, yangilik yaratish hamda o`z mustaqil fikrini bayon etish ko`nikmasi hisoblanadi. Aksariyat hollarda bolalarda, ya'ni maktab o`quvchilarida bolalikda faqat aniq fikrlar

rivojlanadi. Bugungi davr talabi esa boshlang'ich 1-4- sinflarda o'quvchilarning zamonaviy yangi metodlar bilan bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish orqali kreativ fikrlashga o'rgatishni taqozo etmoqda.

Buning uchun dastlab quyidagilarga amal qilish lozim:

✓ 1.Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki va yozma bayon xohishi va zaruriyatni yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

✓ 2.Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi.

✓ 3.Fikr tinglovchi tushunadigan so'z, so'z birikmasi, gap, nutq axborotlari yordamida ifodalasagina tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning uchinchi sharti – nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

✓ 4.O'quvchining bilimi, dunyoqarashi rivojlana borgan sari uning nutqi va tafakkuri ham muttasil o'sib boradi. Ravon, ixcham, ta'sirli nutq tinglovchiga huzur bag'ishlaydi. Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'z o'quvchilarini ana shunday so'zlashga o'rgatishdir.[3,345-346]Keling noan'anaviy metodlarning samaradorligini ko'rib chiqaylik:

➤ 1.O'quvchilarning mashg'ulotlardagi faollashuvi va bundan kelib chiqib bilim olish samarasining oshishi;

➤ 2.O'quvchilar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirishi, hamkorlik yuzaga kelishi;

➤ 3.O'qituvchining nazorati barcha o'quvchilar uchun motivatsiya-ishtiyoqni vujudga keltiradi.

➤ 4.O'qituvchi va o'quvchi vaqtdan to'g'ri va unumli foydalanishi;

➤ 5.Yangi mavuzning keng hajmda o'rganilishi va o'zlashtirilish samaradorligi oshishi;

➤ 6.O'quvchilarning bilim darajalarini har tomonlama va majmualik tekshirib ko'rishi imkon mavjudligi;

- 7.O'quvchilarning faolligi oshib,ilmga bo'lgan e'tibori va qiziqishi kuchayadi.
- 8.Topshiriqlarni amaliy tekshirib ko'rish va vazifani bajarishga ijodiy yondashishi;
- 9.O'quvchining o'zini qiziqtirgan savollarga javob topishga harakat qilishi va ijodiy izlanishi;
- 10.Guruhlarda jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllanishi;
- 11.Bilimi past o'quvchilarning bilimdan o'quvchilarga ergashib, aralashib ketishi;
- 12.O'quvchilar vaziyatni tezda baholay olish va hozirjavob bo'lish ko'nikmalariga ega bo'lib borishi;
- 13.Mustaqil fikrlay oladigan o'quvchilarning ko'payib bopriishi;
- 14.O'quvchida o'zgalar fikrini tinglay olish ko'nikmasini hosil bo'lishi;
- 15.O'quvchi o'z fikrini himoya qilishi;
- 16.Bildirilgan fikrlarni umumlashtirish ko'nikmasi paydao bo'lishi;[4,11]

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :**

1.<https://kun.uz/news/2019/11/27/boshlangich-sinfda-oqitishning-zamonaviy-texnologiyalaridan-foydalanish-usullari?q=%2Fuz%2Fnews%2F2019%2F11%2F27%2Fboshlangich-sinfda-oqitishning-zamonaviy-texnologiyalaridan-foydalanish-usullari>

2.SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 8 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337,Turakulova Mexribon Choriyevna,Turakulova Adolat Choriyevna,BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERFAOL METODLAR VA ZAMONAVIY TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH, 841-b

3.O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA 21-SON ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 20.07.2023, Gulamova Dilrabo Mirmannonovna, BOSHLANG'ICH 1-4-SINFLARDA O'QUVCHILARNING ZAMONAVIY YANGI METODLAR BILAN BILIM, KO'NIKMA VA MALAKA HOSIL QILISH ORQALI KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH, 345-346-b

4.INNOVATION SCIENCE AND RESEARCH INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 5 SEPTEMBER 2023 ISSN: 2992-8877 | SCIENCEJOURNAL.UZ,Sultanova Gulshan Parpiyevna, BOSHLANG'ICH SINF DARSLARDA NOAN'ANAVIY METODLARNING SAMARADORLIGI, 11-b